

TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLARNI
AMALGA OSHIRISH MILLIY MARKAZI

4-sinf o'quvchilarining
o'qish savodxonligini
baholash bo'yicha
o'tkaziladigan
xalqaro tadqiqot-
larga tayyorgarlik
ko'rish uchun



MASHQ DAFTARI

6

(hudud nomi)

(Juman, shahar nomi)

- sonli mактабning

- sinf o'quvchisi

(F.I.O)

IEA

PIRLS

Tuzuvchi:

**Z.Sh.Islomova – Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini
baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga
oshirish milliy markazi bosh mutaxassisi**

Taqrizchi:

**Z.T.Taxirov – Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Tilshunoslik kafedrasи professori, filologiya fanlari
nomzodi**

Mazkur mashq daftari o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish, o‘qiganlarini tahlil va talqin qilish hamda xulosalar chiqara olish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qo‘srimcha didaktik material sifatida tayyorlandi.

Daftarni tayyorlashda PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) tadqiqotining ochiq manbalaridan foydalanilgan.

Daftar umumiyl o‘rta ta’lim mакtablarining 4-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan.

“Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish
milliy markazining matbaa bo‘limi”

Toshkent - 2021

Yo‘riqnomा

Hurmatli o‘quvchi! Siz ushbu mashq daftaridagi topshriqlarni bajarish uchun unda berilgan hikoya yoki maqolalarni o‘qib chiqishingiz va o‘qiganlaringiz yuzasidan savollarga javob berishingiz lozim bo‘ladi. Ba’zi savollar osonroq va ba’zilari esa murakkabroq bo‘lib tuyulishi mumkin. Siz barcha savollarga javob berishga harakat qiling.

Siz turli xil savollarga javob berishingiz kerak bo‘ladi. Ayrim savollarga 4 ta variantdan iborat bo‘lgan harflar bilan belgilangan javoblar keltiriladi. Siz o‘zingizning fikringizga ko‘ra to‘g‘ri javobga tegishli bo‘lgan harfni belgilang.

1-namunada shunday savol berilgan va namuna tarzida javobni qanday belgilash ko‘rsatilgan.

1-namuna

1. Bir haftada necha kun bor?

- A 2 kun
- B 4 kun
- C 7 kun
- D 10 kun

Javobda “C” harfi belgilangan, chunki bir haftada 7 kun bor. Agarda sizning javobingiz to‘g‘riligiga ishonchingiz komil bo‘lmasa, sizning nazaringizda eng to‘g‘ridek ko‘ringan javobni tanlab, keyingi topshiriqqa o‘tishingiz mumkin.

Agar tanlagan javobingizni o‘zgartirmoqchi bo‘lsangiz, uning ustiga chizing va to‘g‘ri deb hisoblagan boshqa javobingizni belgilang hamda keyingi savolga o‘ting. Buni qanday bajarishni 2-namunada ko‘rishingiz mumkin.

2-namuna

2. Bir haftada necha kun bor?

- A 2 kun
- B 4 kun
- C 7 kun
- D 10 kun

Ayrim vazifalarni bajarishda o‘z javobingizni savolning tagidagi maxsus ajratilgan joyga yozishingiz kerak bo‘ladi. 3-namunada shunday savol keltirilgan.

3-namuna

3. Hikoyada aytilayotgan voqeя yilning qaysi faslida bo‘lib o‘tgan?



3-namunada qalam va uning yonida 1 raqami tasvirlangan. Ushbu belgi mazkur savol uchun siz 1 ball olishingiz mumkinligini bildiradi.

4-namunada qalam va uning yonida 3 raqami tasvirlangan. Demak, ushbu savolning to‘g‘ri javobi uchun 3 ball olishingiz mumkin.

4-namuna

4. Aynan nima hikoyaning oxirini bir vaqtning o‘zida ham qayg‘uli ham zavqli qilmoqda? O‘qiganlaringiz bo‘yicha olgan ma’lumotlaringizdan foydalanim, o‘z fikringizni tushuntirib bering.



Daftар ikki qismdan iborat. Har bir vazifani bajarishga 40 daqiqadan vaqt ajratiladi. Har bir vazifaning o‘rtasida qisqa tanaffus beriladi.


Hamma savollarga imkon qadar yaxshiroq javob berishga harakat qiling. Agar siz birorta savolga javob bera olmasangiz, keyingisiga o‘tishingiz mumkin.



To'xtang!

O'qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang!

Charlining qobiliyati



Yoz fasli endigina boshlangan edi. Charli o‘zining uyi oldidagi bog‘da ishlayotgan edi. U sakrab ketayotgan do‘sti Deyvni ko‘rib qoldi. U to‘xtadi va qo‘l silkidi.

“Yozda nima qilmoqchisan?”- deb so‘radi Charli.

“Bizning futbol jamoamiz katta turnirga tayyorlanmoqda. Mening o‘ylashimcha, bu yil g‘olib bo‘lamiz”, deb javob berdi Deyv.

“Voy...bu juda zo‘rku”, - dedi Charli.

Deyv yugurib ketdi, Charli esa urug‘larni ekishda davom etdi. “Futbol jamoasida bo‘lganimda edi”, - deb o‘yladi u. Men tayyorgarlikni boshlashim kerak...

1. Hikoyaning boshida Charli qayerda edi?

- A o‘zining bog‘ida
- B mактабда
- C ko‘чада
- D o‘zining uyida

2. Kim futbol turniriga tayyorlanayotgan edi?



Charli keyingi haftada stadionga bordi. U futbol jamoasidagi bolalarni tanir edi. Charli ularga qo'shilib o'ynadi, lekin natija yaxshi bo'lmasdi. Uning oyoqlari chalishib ketdi va raqib jamoasi uchun gol urib qo'ydi.

U o'yin so'ngida futbolga qobiliyatsizligini tushunib yetdi.

Charli oyog'ini sudrab uyiga qaytdi va yana o'zining bog'ida ishlay boshladi. U aynan o'sha vaqtda ko'chada ketayotgan Janni ko'rib qoldi. "Salom, Jan!" - dedi u. "Yoz fasli uchun sening qanday rejalaring bor?".

"Men ko'p qo'shiq aytayapman. Bizning xo'r jamoamiz katta konsertga tayyorlanayapti", - dedi Jan.

Charli xo'rsindi. U qo'shiq aytishni qiziqarli deb o'yladi. Men qanday qilib kuylashni bilaman... To'satdan chopiq ishlari bilan shug'ullanib yozni o'tkazish ahmoqona ish degan xayolga bordi.



3. Charli futbol o'yini paytida bajargan ikkita ishni yozing.



1. _____



2. _____

4. Hikoyada aytishicha, "Charli oyog'ini sudrab uyiga qaytdi". Bunda Charli o'zini qanday his qilgani haqida nimani angladingiz?

- (A) U raqsga tushishni xohlaganini
- (B) Uning xafa ekanini
- (C) Uning jahli chiqqanini
- (D) U bog'bonchilik qilishni xohlaganini

5. Yoz fasli uchun Janning qanday rejalari bor edi?




6. Jan bilan suhbatlashgandan keyin Charlining bog'bonchilik qilishga nisbatan fikri qanday bo'ldi?



Bir necha haftadan so‘ng Charli yangi qo‘sinqchi guruh tashkil etilayotganligi haqidagi e’lonni ko‘rdi. U urinib ko‘rmoqchi bo‘ldi. Charli qo‘sinq kuylar ekan, uning ovozi titradi va chiyillab chiqdi. Hay’at a’zolaridan birining yuzi burishdi. Bundan Charli tanlovdan o‘ta olmaganini tushundi.

Charli uyiga qaytib, o‘tlarni yuldi. Barcha do‘stlarimning o‘ziga yarasha qobiliyati bor, deb o‘yladi. Men ham biror sohada zo‘r bo‘lishni xohlardim.

Yozning qolgan qismida ham Charli o‘z qobiliyatini aniqlashga urindi. Har bir yangi mashg‘ulotidan so‘ng Charli boshini egganicha uyiga qaytar va vaqtini o‘zining bog‘ida o‘tkazar edi.



7. Charli e'londa nimani ko'rди?

- A futbol o'yinini
- B bog'bonchilik guruhini
- C yozgi konsertni
- D qo'shiqchi guruhni

8. Nima uchun hay'at a'zosining yuzi burishdi?



9. Charli yangi mashg'ulotga urinib ko'rganidan so'ng nima qildi?





Yoz faslining oxiriga kelib, Charli do'stlari Jan va Deyvni yana ko'rib qoldi. "Katta futbol turniri qanday o'tdi?" - deb so'radi u.

"Biz yutdik", - deb javob berdi Deyv.

"Konsert qanday o'tdi?" - deb Charli Jandan so'radi.

"Ertaga bo'ladi, biroq, bizning xo'r jamoamiz juda ham qattiq tayyorlandi va men yakkaxon bo'lib kuylayapman", - dedi Jan.

"Tabriklayman", - dedi Charli ularga. "Men ham biror nima bilan faxrlanishni xohlar edim".

"Hazillashayapsanmi?" - deb so'radi Jan. "Sening bog'ingdag'i sabzavotlar juda ham katta! Men har doim biror narsa o'stirishga harakat qilaman, lekin ular so'lib, qurib qoladi".

"Rostdanmi? - Men hech qachon bog'bonchilik shunchalar muhim deb o'ylamagan edim". Charli jilmaydi. "Ertaga ikkalangiz Deyvning futbolda g'alaba qozonganini nishonlash uchun kelmaysizmi? Onam mening bog'imdag'i narsalardan kechki ovqat tayyorlab beradi, undan keyin Janning konsertiga borishimiz mumkin."

10. Deyvning futbol jamoasini yaxshi deb ayta olishingiz uchun qanday sabab bor?



11. Kimning ekkan sabzavotlari so'lib, qurib qolar edi?

- A Charlining
- B Deyvning
- C Janning
- D Charlining onasining

12. Charli nimada zo'r edi?



13. Jan hikoyaning yakunida Charliga nimani anglashga yordam berdi?

- A U allaqachon nimadadir zo'r ekanligini
- B U futbolda zo'r ekanini
- C Bog'bonchilik qiyin ish ekanini
- D Uning do'stlari undanda iqtidorli ekanini

14. Nima uchun Charli hikoya so‘ngida do‘sstarini uyiga taklif qildi?

- (A) yoz faslining tugashini nishonlash uchun
- (B) hammalarining qobiliyatlarini nishonlash uchun
- (C) futbol o‘ynash uchun
- (D) ularga bog‘bonchilikni o‘rgatish uchun

15. Yoz davomida Charli nimani xohladi?

- (A) o‘zining bog‘ida ko‘proq vaqt ishlashni
- (B) har xil do‘sstar bilan o‘ynashni
- (C) yangi joyni borib ko‘rishni
- (D) u nimaga qobiliyatli ekanligini bilishni



To'xtang!

O'qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang!

Ozuqa izlab

Bu yerda mayda hasharotlarning qanday qilib ozuqa topishi va oziqlanishi haqida uchta loyiha berilgan. Birinchi navbatda siz chumolilar, zahkashlar va chuvalchanglarni topib olishingiz kerak. Ularga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'ling va ularni o'rganib chiqqaningizdan so'ng ularni topgan joyingizga qaytarib qo'ying.

- Chumolilarning izidan ergashish
- Zahkashlarni o'rganish
- Chuvalchanglar saqlaydigan idish tayyorlash

Chumolilar, zahkashlar, chuvalchanglarni qayerdan topish mumkin

Chumolilarning izlari yoz faslida uchraydi. Bir uchida ozuqa bolsa, yana bir uchida inga kirish joyini uchratishingiz mumkin.

Chumoli



Zahkashlar nam, qorong'u joylarni yaxshi ko'rishadi. Ularni to'nkalar ostida, qurigan daraxt barglari uyumi ostida va devorlar orasida uchratish mumkin.


Zahkash



Chuvalchang



Chuvalchanglar toshlar ostida, endigina qazib olingan tuproqda yoki chirindilar uyumi yonida yashaydi. Ular yerning yuzasiga faqat kechki payt chiqadi.



Chumolilarning izidan ergashish

Chumolilar inlarida bиргалашиб yashaydilar. Agar bitta chumoli ozuqa topsa, u boshqalari ergashishlari uchun iz qoldiradi. Siz ushbu tajribani bajarishingiz uchun chumolilarning inini topishingiz kerak bo'ladi. Shuningdek, sizga quyidagi materiallar kerak bo'ladi: bir varaq qog'oz, olmaning kichkina bo'lagi va bir hovuch tuproq.

1. Olma bo'lagini qog'oz ustiga qo'ying va qog'ozni chumolilarning iniga yaqinroq joyda qoldiring. Ba'zi chumolilar olmani topgunlariga qadar kuting. Ularning barchasi bitta izdan ergashishlari kerak.
2. Olmani siljiting. Chumolilar to'g'ri unga borishadimi?
3. Endi izni yopish uchun qog'ozga tuproq seping. Chumolilar bir muncha vaqt davomida atrofda aylanib yurishlari mumkin. Ular yangi iz hosil qilishadimi?

Nima sodir bo'ladi?


Ozuqa siljutilgan bo'lsa hamki chumolilar yangi iz hosil qilinmagunicha eski izdan yurishadi.

Nima uchun?

Bitta chumoli ozuqa topishi bilanoq, o'zidan hidli iz qoldiradigan kimyoviy moddalar ajratib chiqaradi. Indagi boshqa chumolilar ushbu hidni sezish uchun o'zlarining mo'ylovlaridan foydalanadi.

Zahkashlarni o'rganish

Zahkashlarning sezgir mo'ylovleri bor. Bunday quti tayyorlang, keyin idishga oltita zahkashni to'plang, ularni qutiga qo'yaningizda qanday qilib yo'l topishlarini kuzating. Bunda sizga: qopqoqli kichkina bo'sh quti, qaychi, yelimli tasma va daraxtdan uzilgan nam barglar kerak bo'ladi.



1. Rasmdagi yo'laklarni yasash uchun uchta uzun bo'laklarni hosil qilishda qopqoqdan foydalaning.
2. Zahkashlar o'sha vaqtida yo'lak bo'ylab bittadan yurishiga qo'yib bering. Ular yo'lakning oxiriga yetib borganda ba'zilari chapga, ba'zilari esa o'ngga buriladi.
3. Nam bargni qutining o'ng tomoniga qo'ying. Qo'ng'izlarni yana quti ichida yurishga qo'yib bering. Ular qaysi yo'ldan borishadi?

Nima sodir bo'ldi?

Zahkashlar ozuqa turgan tomonga, o'ngga buriladi.

Nima uchun?

Zahkashlar ozuqani o'zlarining mo'ylovleri bilan sezishadi. Ular mo'ylovlaridan bargni topishda foydalanishadi.

Chuvalchanglar saqlaydigan idish tayyorlash

Chuvalchanglarni o‘rganish qiyin, chunki ular yorug‘likni yoqtirishmaydi. Ular yorug‘likni sezishlari bilanoq, qorong‘u joy topishga harakat qilib qochishadi. Chuvalchanglar qanday qilib yashashi va oziqlanishini ko‘rmoqchi bo‘lsangiz, bu yerda ko‘rsatilganidek chuvalchanglar saqlaydigan idish tayyorlang.

Sizga quyidagilar kerak bo‘ladi:

- Oyoq kiyim qutisi
- Yelimli tasma
- Ruchka
- Qaychi
- Katta plastik banka
- 1 stakan qum
- 3 stakan yumshoq tuproq
- Piyoz va kartoshkaning kichkina bo‘laklari

Keyin esa 2-3 ta chuvalchangni topib, uning ichiga soling. Shuni yodda saqlash muhimki, chuvalchanglarni tortmang, aks holda ularga jarohat yetkazishingiz mumkin. Ularning tanasi tuproqda sudralishi uchun tukchalar bilan qoplangan bo‘ladi.

1. Oyoq kiyim qutisi qopqog‘ining bir tomonini eshikka o‘xshab ochilishi uchun qutiga yelimlang. Chuvalchanglar saqlaydigan idishga havo kirishi va yorug‘lik uchun qutining tepe qismini ruchka bilan teshing.
2. Plastik bankaning tepe qismini kesib oling, ichini yumshoq tuproq va qum qatlamlari bilan to‘ldiring. Yuza qismiga kartoshka va piyoz soling.
3. Chuvalchanglarni ehtiyyotkorlik bilan banka ichiga soling, so‘ngra bankani qutiga joylashtirib, eshikni yoping. Uni tashqarida, salqin va quruq joyda to‘rt kunga qoldiring.
4. To‘rt kundan keyin bankani ko‘zdan kechiring. Tuproq va qum bir-biridan qanday farq qiladi?


Unutmang: ushbu loyihani tugatganingizdan so‘ng chuvalchanglarni topgan joyingizga qaytaring.

Nima sodir bo‘ldi?

To‘rt kundan keyin tuproq va qum bir-biriga aralashib ketadi.

Nima uchun?

Chuvalchanglar yuza qismiga ko‘tarilayotganda ozuqani yeyish uchun qum bilan tuproqni aralashtiradi va yorug‘likdan qochish uchun yer ostida yo‘lak qaziydi.



“Ozuqa izlab” matni yuzasidan savollar

1. Matnning asosiy maqsadi nima?
 - (A) Siz bajara oladigan turli xil loyihalarni tasvirlash
 - (B) Chumoli izlari haqida ma'lumot berish
 - (C) Kichkina jonzotlarning nimaga o'xshashini ko'rsatish
 - (D) Chuvalchanglar nima bilan oziqlanishini tushuntirish

2. Jonzotlarga g'amxo'rlik ko'rsatish uchun nima qilishingiz kerak?
 - (A) Ularni qoyalar va toshlar ostidan qidirish
 - (B) Ular haqidagi hamma ma'lumotni topish
 - (C) Imkon qadar ko'proq jonzotlarni toplash
 - (D) Ularni topgan joyingizga qaytarib qo'yish

3-5-savollar chumolilarni o'rganish loyihasi haqida

3. Nima uchun olmani chumolilarning ini yaqiniga qo'ydingiz?
 - (A) Chumoli izini to'sib qo'yish uchun
 - (B) Chumolilar iz hosil qilishlari uchun
 - (C) Chumolilarni yo'ldan adashtirish uchun
 - (D) Chumolilar atrofda aylanib yurishlari uchun

4. Agar bitta chumoli ozuqani topishi bilanoq, indagi boshqa chumolilar buni qanday sezishadi?
- (A) Ular dastlab chumolini kuzatishadi va unga ergashadilar
 - (B) Ular ozuqani topmagunlaricha, atrofda aylanib yurishadi
 - (C) Ular birinchi chumoli qoldirgan hidni sezishadi
 - (D) Ular qog'oz ustidagi ozuqani hidlashadi

5. Nima uchun tuproqni sepganingizdan keyin chumolilar atrofda aylanib yurishdi?



6-10-savollar zahkashlarni o'rganish loyihasi haqida

6. Qanday qilib zahkashlar ozuqani topishadi?
- (A) Ular yo'laklarda yurishadi
 - (B) Ular o'zlarining mo'ylovleri yordamida ozuqani sezishadi
 - (C) Ular hidli izga ergashadi
 - (D) Ular ozuqani qorong'uda ko'radi

7. Zahkashlarni o'rganish uchun rasmga qarang. Tajribada nima qilishni bilishingiz uchun rasm qanday yordam beradi?



8. Nima uchun qutiga barglarni solishdan oldin zahkashlarni yo'lakka qo'yib yuborishingiz kerak?
- (A) Ular labirintni o'rgana olish yoki olmasligini ko'rish uchun
 - (B) Ozuqa yo'q bo'lganida ularning nima qilishlarini ko'rish uchun
 - (C) Quti to'g'ri qo'yilgan yoki qo'yilmaganini ko'rish uchun
 - (D) Qaysi biri qaysi tomonga burilishini ko'rish uchun

9. Agar siz zahkashlar loyihasining 3-bosqichida nam barglarni qutining chap tomoniga siljitsangiz, sizningcha, nima sodir bo'ladi?



10. Chumolilar bilan qo'ng'izlar o'zlarining ozuqasini topishidagi o'xshashlik nimada?



11-13-savollar chuvalchanglar saqlanadigan idish loyihasi haqida

11. Chuvalchanglar saqlanadigan idishni tayyorlash uchun amal qilishingiz kerak bo'lgan bosqichlarga raqam qo'ying.
1 raqami siz uchun qo'yilgan.
- _____ bankani poyabzal qutisiga joylashtiring
____1____ poyabzal qutisining tepa qismini teshing
_____ chuvalchanglarni ichiga soling

_____ piyoz va kartoshkani soling
_____ bankani tuproq va qum bilan to‘ldiring

12. Nima uchun bankaga tuproq va qum solish muhimligini tushuntiring.



-
13. Tuproqning yuza qismiga kartoshka va piyoz solish chuvalchanglar saqlaydigan idish lohiyasida nima uchun muhim hisoblanadi?



14. Har bir loyihada alohida katak bo‘lib, uning ichiga “*Nima sodir bo‘ldi*” va “*Nima uchun*” savollari yozilgan. Ushbu kataklardan ko‘zlangan maqsad nima?

- (A) Loyiha bosqichlarini tushuntirish
- (B) Loyihada nimalar kerakligini aytish
- (C) Tugatganingizdan keyin nima qilishingiz kerakligini aytish
- (D) Nimani ko‘rganingizni tushuntirish

15. Uchta loyihadan qaysi birini eng qiziqrarli deb hisoblaysiz? Javobingizni izohlash uchun matndagi ma’lumotdan foydalaning.





To'xtang!

O'qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang!

“Charlining qobiliyati” deb nomlangan hikoyani o‘qish siz uchun qanchalik yoqimli bo‘ldi?

Faqat bitta javobni belgilang.



Menga juda yoqdi-----



Menga biroz yoqdi-----



Menga unchalik yoqmadi -----



Menga umuman yoqmadi-----

“Ozuqa izlab” deb nomlangan hikoyani o‘qish siz uchun qanchalik yoqimli bo‘ldi?

Faqat bitta javobni belgilang.



Menga juda yoqdi-----



Menga biroz yoqdi-----



Menga unchalik yoqmadi -----



Menga umuman yoqmadi-----



**"Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish
milliy markazining matbaa bo'limi"**

**100115, Toshkent shahar,
Chilonzor tumani, Nurxon ko'chasi, 21-uy
Telefon: (+99871) 207-97-98 (3013)
www.markaz.tdi.uz
Telegram: t.me/milliymarkaz**